




International Scientific and Practical Conference on the  
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and  
Achievement of the Present and Future"



## FARG`ONA VODIYSIDA XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDAGI BADIY ME'MORCHILIKNING SHAKLLANISHI.

N.Z.Muminova

*Farg`ona politexnika Instituti doktoranti*

*Ilmiy raxbar a.f.d. prof. O.Salimov muminova1706@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Farg`ona vodiysi xalq ustalari yangi avlodlar uchun mahalliy me'morchilik maktabi an'analarining boy tajribasini meros qilib koldirishganligi xaqida.

**Tayanch so`zlar:** ansambl, xovli sahni, me'moriy nafosat, naqshu nigorlar, bog` ramzi.

O`zbeklarning hovli-joyi butun boshli tugal bir me'moriy ansamblni tashkil etadi. Har biri o`zicha mazmunga ega bo`lgan bir qancha bo`laklarning bir-biri bilan uzviy bog`lanib kelishi ana shunday ansambl yuzaga kelishini ta'minlagan. Shu boisdan ham xovli-joylarning umumiy tuzilishida bir-biriga qarama-qarshi ajoyib mushtaraklikni kuzatish mumkin: bir tomondan, ular keng-hovul, bohavo qilib qurilsa, ikkinchi tomondan, har taraflama dahlsizlikni ham saqlab qolgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Farg`ona vodiysi xalq ustalari yangi avlodlar uchun mahalliy me'morchilik maktabi an'analarining boy tajribasini meros qilib koldirishgan. Ba`zi taddiqotchilar Farg`ona me'morchiligini bir kancha uslublar umumlashmasidan kelib chiqqan deb xisoblasalarda, lekin uning o`ziga xos xususiyatlari yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Bu hol, xususan, me'moriy rejlash va bezak berish usullarining rang-barangligida o`z aksini topgan.[1]

Farg`ona ustalari ko`r-ko`rona taqlid yo`lidan bormay, o`zлari uchun tanish bo`lgan uslublarni yo`naltiruvchi vosita sifatida qabul qilganlar, xolos. Me'morlarning asosiy vazifasi yashash uchun har jihatdan qulay, shinam, chiroyli uy-joylar bunyod etish bo`lgan.

Odatdagи Farg`ona turar-joy uylari nisbatan keng-xovulligi, uslubining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular ma'lum shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ixcham, ko`rimli qilib qurilgan.

Farg`ona turar-joy binolariga zamonaviy nuqtai nazardan baho beradigan bo`lsak, ulardagi zamonaviy talablar bilan hamohang fazilatlarni topish qiyin emas.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Farg`ona turar-joy uylari uch qismidan: xovli sahni, ayvon va yotoq xonalaridan iborat bo`lgan.[2] Hovlining chor atrofidan qurshab olgan xonalar tizmasi va ayvonlar o`zgacha me'moriy nafosat kasb etadi.

XIX asr o`rtalarida yangi qurilish ashyolarining paydo bo`lishi turar-joy uylarining qurilish tarzini

E-mail address: editor@centralasianstudies.org

(ISSN: 2660-6844). Hosting by Central Asian Studies. All rights reserved..

tubdan o`zgartirib yubordi. Poydevorlar ustidan qad ko`targan adlqomat bu uylarga deraza-romlar qo`ndirilib, usti qubbador tunuka tomlar bilan yopila boshladi. Asta-sekin silsilador, yuqori qavati tim shaklidagi imoratlar paydo bo`ldi.

O`zbek ustalari uy-joyni hovli-sahnsiz tasavvur ham qilmas edilar. Zero hovli sahni o`zbek xalqining oilaviy turmushida hayotiy ahamiyatga ega bo`lgan. Jazirama yoz kunlarida hovli sahni o`ziga xos ko`m-ko`k vodiyga aylanadi, u yerda xonodon sohiblari uchun hamma vaqt ham ish topilgan, xordiq chiqarish ham mumkin bo`lgan. Bundan tashqari hovli sahni nafosat manbai ham bo`lgan, unda barcha me`moriy nazokat va nafosat mujassam topgan. Farg`ona hovli-joylari bir-biriga sira o`xshamaydigan bir necha turar-joy bo`laklarining yig`indisidan iboratdir. Yagonalik va yaxlitlik hovli-joylarning mutanosibliklarini ta'min etgan. Baland-past qilib tiklangan uylar va muri uchidagi o`ziga xos qalpoqchalar ravonlikka zid ularoq sho`xchan qiyofa kasb etgan. [3] XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi badiiy me`morchilikning shakllanishida ustunlar, to`sqliar, panjaralar va deraza qopqoqlari alohida o`rin egallaydi. Deraza va eshiklarning o`ymakor qopqoqlari bilan ayvonlarning murakkab uslubdag'i ko`tarma chiylari vaqt bilan oynavand romlarni siqib chiqardi. Kursisi, tanasi va moshalari o`yma naqshlar bilan bezatilgan ustunlar o`rniga oddiy yog`ochlar ishlatila boshlandi, bu esa turar-joylarning mahalliy bezaklardan mahrum bo`lishiga olib keldi.

Uy ichkarisini jihozlashda Farg`ona vodiysining barcha tarixiy shaharlariga xos badiiy uslublarning umumiy printsiplari qo`shilib ketganini ko`ramiz. Xonalar ko`pi bilan ikki yoki uchta bolor yordamida bir-biriga ulangan, ularni tutashtiruvchi dahlizlar bo`lмаган. Devorlarga tokchalar yasalib, ularga ro`zg`or buyumlari terib qo`yilgan. Ochiq xona ichi odatda to`r va poygahdan iborat bo`lgan. Devorlarning quyi, o`rta va sharafa deb ataluvchi uchala qismini xalq ustalari o`zlaricha talqin etganlar. Ba`zi devorlarga foydalanish uchun moslab ishlov berilsa, ba`zi joylarda ularning xonaga oro berishini mo`ljallab, ko`rkam qilib ishlangan. Tokchaning quyi qismi 80-90 sm. balandlikda ko`tarilgan, tokcha ustunlari, ya`ni sharafalar goho bir metrni tashkil etgan. Eshik bolorboshi yotqizilgan devorga qo`ndirilib, unga qarama-qarshi tomonda ko`rpa-yuklar qo`yiladigan katta-katta tokchalar joy olgan.

O`ymakorlik va naqshu nigorlar bilan bezatilgan ochik joy va tokchalar devorning asosiy jihozlari xisoblangan.

Devor bilan shift tutashgan joydagi bolorosti peshtoq sharafasi o`ymakorlik yoki rangin naqshu nigor bilan bezatilgan. XIX asrda Farg`onaga tashqaridan o`rmon yog`ochlarining kirib kelishi shiftlarning qiyofalarini batamom o`zgartirib yubordi. Bolorlar o`rnini turli shakldagi taxtalar egallay boshladi. Taxtalarni terib qo`yish yoki sharafaga qo`shimcha ishlovlar berish yordamida zamonaviy uslubga o`tila boshlangan. Chizmalarda berilgan shift kesmalari bu boradagi jarayonning qanday kechganidan dalolat berib turibdi.[4] Dastavval shakl o`zgarishidagi jarayon ko`zga yaqqol tashlanadiki, bu oxir-oqibatda shift qiyofalarining ozmi-ko`pmi xajmdor, tantanavor, badiiy jihatdan ma`nodor bo`lishiga olib kelgan.

Farg`ona turar joy uylarini bezashda ganch va yog`och o`ymakorligi ham ishlatilgan. XIX asrda ganch o`ymakorligi ayniqsa keng avj olgan.

O`ymakorlik yo`llari bezak tushiriladigan maydon shakliga mos ravishda tanlangan: panno islimiy naqshlar bilan to`ldirilgan, bordyuralarga xandasaviy yoki guldor naqshlar chekilgan, panellar esa bodom yoki yulduz tasvirlari bilan jilolangan.

XIX asr o`rtalariga kelib tasviriy san'at o`zining taraqqiyot cho`qqisiga ko`tarildi. Bu devordagi

rasmlar erkin talqini, gullarining jonliligi, ranglarining uyg`unligi bilan ajralib turadi.

Shift bezaklariga alohida e'tibor bilan qaralgan. Naqshlar shiftning shakli, qismlarining kattakichikligi, qanday joylashganligiga monand qilib tanlangan. Mehrob va sharafalar tuzilishi, naqshlarining nazokati, rang-barangligi bilan betakrordir. Ular tagi mayda guldor naqshlar bilan to`ldiriltan yirik hajmdagi tasvirlardan iborat bo`lgan. Bunda turli girihsar, jimgimador lavhalar, turunj (medalxon)lar istifoda etilgan.

Shiftlarini bo`yashda, albatta, qandaydir bir umumiy rang bosh vazifani o`tagan. Farg`onada, odatda, to`q ko`k, to`q qizil ranglar ko`proq qo`llanilgan, XIX asr ikkinchi yarmida moviy-yashil, kizil, feruza ranglarga e'tibor kuchli bo`lgan. Garchi Farg`ona naqshu nigorlari nuqul mahalliy ruhda ado etilgan bo`lsa-da, bari bir yot naqshlar izlari ham sezilib turadi.

Kuchli ruhiy vosita bo`lmish rang yordamida ustalar bino ichkarisidagi rang-baranglikning ta'sirini oshirishga muvaffaq bo`lganlar. Farg`ona bezaklarining ko`plab namunalari fikrimizga dalil bo`la oladi. Ular farg`onalik ustalarning noyob iste'dodlarini namoyon etish bilan birga ular ijodidagi o`ziga xoslik va mahalliy asos mavjudligini hamisha barqaror saqlab kelgan. XIX asr esa o`rta asr uy-joylari ichki manzarasining shakllanishidagi so`nggi bosqichidir. Gul, butoq, daraxt singari islimiyl naqshlar ramziy, tashbixiy, timsoliy ma'nolarni o`zida mujassam etgan. Masalan, gullagan bog` ramzini hayotning go`zalligi, baxt, farovonlik kabi sifatlarga bog`langan. To`lqinli o`simlik poyasi tinimsiz ijod va tabiat tarovati, to`lqinlar shiddatli hayot oqimi, gul esa yorug` olam go`zalligi, bu go`zallikning gul umri singari o`tkinchiligi va hokazo ramziy ifodalarni anglatgan. O`rta Osiyo naqshlarida doyra, girihs, uchburchak singari shakllar ko`pincha muqaddas insu jinslardan halos etuvchi belgilar bo`lib xizmat qilgan.

XIX asrga kelib ko`pgina buyumlar o`zining diniy negizini yo`qotdi, uncha-muncha saqlanib qolganlari esa qadimiy e'tikod va ramzlarning yashovchanligidan darak beradi. Naqshlarning ramziy ahamiyati yagona hodisa emas.[5]

**Xulos**a o`rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi kunga kelib, uyning ichki qismlarini bezashda oddiylik, bezak ishlarida yangicha talqinlar paydo bo`lmoqda. Tasvirni ijro etishda ham sifat o`zgarishlari ko`zga tashlanmoqda, ya'ni: naqsh chiziqlari qo`pollashganligi sababli, suvratlar junlashdi, ortiqcha bezaklar yo`qotildi, buyoq ranglari ochroq tus oldi. Ba'zi tadqiqotchilar bu holni bezak san'atining inkiroziga ham yo`yishdi. Aslida bunday emas, chunki, xayot takozosi tufayli eskilik chekinib, uning o`rnini yangilik egallay boshladи. Hamma narsani qayta fikrlab, qayta xis etib, qayta talqin qilish pallasi yetdi. Xalq ijodi kelajakda ro`y berishi muqarrar sifat o`zgarishlari sari yuz tutmoqda.

### ***Adabiyotlar:***

1. Azimov I.M. Arxitektturnyuе pamyatniki Ferganskoy doliny. T.,1982.
2. Azimov I.M. Rospisi Uzbekistana. T., 1987.
3. Pugachenkova G.A., Rempel L.I. Vydayushchiyesya pamyatniki izobrazitel'nogo iskusstva Uzbekistana. T., 1960.
4. Rempel L.I. Arxitektturnyу ornament Uzbekistana. T.,1961.
5. Mirzaahmedov R., Murtazayev A. Marg`ilon zamini javohirlari. “Farg`ona” nashriyoti. 2014.